
“TASHABBUSLI BYUDJET”: TURVAT OILAVIY SHIFOKORLIK PUNKTIDA BARCHA SHAROITLAR YARATILDI

Toshloq tumanida 2022 yildan buyon faoliyat yuritib kelayotgan Turvat Oilaviy shifokorlik punkti yillar davomida ta'mir talab bo'lib qolgan edi. Ushbu maskan 2022 yilda o'tkazilgan "Tashabbusli byudjet" loyihasida 2400 ta ovoz to'plab g'olib bo'ldi. Loyihaga ko'ra, 850 million so'm mablag' evaziga bino qaytadan ta'mirlandi. Qurilish jarayonida binoning tashqi va ichki fasadi, isitish tizimi ta'mirlanib, eshik va romlar yangisiga almashtirildi.

Turvat Oilaviy shifokorlik punkti 10336 nafar aholiga tibbiy xizmat ko'rsatadi. "Tashabbusli byudjet" loyihasida g'olib bo'lib, muammolarimiz hal bo'ldi,- deydi OSHP mudiri Ilhomjon G'ofurov. - Hozirda OSHPda EKG, kunduzgi shifoxona, laboratoriya, ayollar maslahatxonasi, ijtimoiy dorixona faoliyat yuritib mahalliy aholini tuman markaziga bormay shu yerning o'zida sog'liqlari uchun kerakli birinchi yordamni olishlari uchun barcha qulayliklar yaratildi.

2023-02-06 14:52:25